

ISSN 2181-1792

FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ILMIY
JURNAL

2024-YIL, OKTABR

FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ILMIY JURNAL №1 (2024-YIL, OKTABR)

FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ilmiy jurnal

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научный журнал

PHILOLOGICAL RESEARCH

scientific journal

№ 1 (2024-YIL, OKTABR)

FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ILMIY JURNAL №1 (2024-YIL, OKTABR)

Ilmiy jurnal

Bosh muharrir: Xudoyqulov Akbar

Muassis: “Filolog” MCHJ

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Soatova Nodira

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Adminstratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy

kommunikatsiyalar agentligi

tomonidan 08.01.2021-yilda

1147 raqami bilan davlat

ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Mas’ul kotib: Alimov Ozod

Tahrir hay’ati:

Abdushukurov Baxtiyor

Alimuhammedov Rixsitilla

Asadov Maqsud

Bekova Nazzora

Boltaboyev Hamidulla

Jo‘rayev Jaloliddin

Jo‘rayev Jamoliddin

Mullaxo‘jayeva Ra‘no

Rahmonov Nasimxon

Sariyev San‘atjon

Sodiqov Qosimjon

Tog‘ayev To‘lqin

Yusupova Dilnavoz

Qosimov Abdug‘afur

Qorayev Sherxon

Erkinov Aftondil

Hasanov Nodirxon

Hamroyeva Orzigul

ISSN 2181–1792

№ 1

2024

Tahririyat:

Muharrirlar: Fayzullayeva Shaxnoza

Texnik muharrir: Rustamov Anvar

Sahifalovchi va dizayner: Qodirov

Humoyun

Toshkent 2024

«Filologik tadqiqotlar» jurnali – filologiyaning dolzarb mavzulariga bag‘ishlangan o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi ilmiy maqolalarni nashr qiladi.

“GULSHANI ROZ” HAMDA “LISON UT-TAYR” ASARLARIDA SO‘FIYLIK VA IRFON TALQINI

Bekova Nazora - Buxoro davlat universiteti professori

Hayot Latipov - Buxoro davlat universiteti dotsenti

Zarina Sayliyeva - Buxoro davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqola “Gulshani roz” hamda “Lison ut-tayr” asarlarida ilgari surilgan izfoniy g‘oyalar talqini va ularda qo‘llangan g‘ayri islomiy so‘zlarning istilohiy mohiyati hamda Mahmud Shabustariy va Alisher Navoiy asarlarining mushtarak jihatlari tadqiqiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: irfon, ma‘rifat, shariat, tariqat, haqiqat, sidqu sadoqat, shijoat, iffat, adolat, zunnor bog‘lamoq, riyo, but, butparast, tarso, tarsobacha, kufr, gumroh, ogoh, orif, zulf, yuz, xat, xol.

Аннотация. Статья посвящена исследованию эзотерических идей, изложенных в произведениях “Гулиани роз” и “Лисон ут-тайр”, и терминологической сущности используемых в них не исламских слов, а также общим чертам произведений Махмуда Шабустари и Алишера Навои.

Ключевые слова: ирфон, просветление, шариат, тарикат, истина, искренность, смелость, чистота, справедливость, зуннор, лицемерие, идол, идолопоклонство, христианин, куфр, заблуждение, мудрость, зульф, лицо, почерк, родинка.

Annotation. This article is dedicated to the interpretation of the mystical ideas presented in the works “Gulshani Roz” and “Lison ut-Tayr,” as well as the contextual essence of the non-Islamic words used within them, along with the commonalities found in the works of Mahmud Shabustari and Alisher Navoi.

Keywords: gnosis, enlightenment, sharia, tariqa, truth, sincerity and loyalty, courage, chastity, justice, connecting a belt, hypocrisy, idol, idolater, fear, little fear, disbelief, misguided, alert, knowledgeable, curl, face, letter, state.

Mahmud Shabustariy – musulmon xalqlari ma‘naviy olamini yuksalishida munosib hissa qo‘shgan Fors-tojik adabiyotining yetuk shoiri. Xayyompurning “Farhangi suxanvaron” nomli kitobida qayd etilishicha, yigirmadan ortiq ilmiy va adabiy manbalarda Shabustariyning hayoti va ijodiga oid ma‘lumotlar bayon etilgan.

Mahmudning yoshligidanoq she‘r, adabiyot, ayniqsa, tasavvufga mehri va ishtiyoqi juda baland bo‘lgan. U boshlang‘ich ma‘lumotni tug‘ilgan maskani Shabustarda olgan. Keyinchalik, o‘sha davrning mashhur mutasavvif olimlari Bahoaddin Yoqub Tabriziy, Hofiz Husayin Karbaloiylarning qo‘lida tarbiya topgan. Uning “Gulshani roz” asarida bu haqda shunday baytlar bor:

چنن خوابهای الحق دادی الدین امین من استاد و شیخ
باد پاکش روانی بر کافرین استاد چنان ذکر ندیدم من
(Shayx va ustodi man Aminiddin,
Dodi ul-haq javobhoyi chunin.
Man nadidam digar chunon ustod,
Ki ofarin bar ravoni pokash bod).

Mazmuni: Mening shayx va ustozim Aminiddin. U menga azal sirlaridan ko'p saboqlar berdi. Uning pokiza tariqat yo'liga ofarin.

Shabustariy "Gulshani roz"dan avval "Haqqul-yaqin" ("Ishonchli haqiqat"), "Risolai shohid" ("Shohid haqida risolalar"), "Mir'ot ul-muhaqqiqin" ("Oriflar ko'zgusi") va "Minhoj ul-obidin" ("Taqvodorlar yo'li") kabi asarlarni yozgan. Lekin uning nomini dunyoga mashhur qilgan kitob "Gulshani roz" bo'lgan. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy bu haqda "Nasoyim ul-muhabbat"da shunday deydi:

"... Yana "Shohid"durki, ul ham ishorat ahli tili bilan maorif bayon qilibdur, ul dag'i ta'rifdin mustag'niydur. ..Yana "Gulshani roz"durkim, ham zohir ahlining ranginu purkor masnaviylari va ham haqiqat ahlining shirinu fayzosor so'zlarida andin ravonroq va purchoshniyroq va sho'rangizroq va shavqomizroq nazm aytsa bo'lg'ayki, yo'qdur!

Darhaqiqat, "Gulshani roz" faqat tasavvuf ahlining emas, balki so'fiylik va irfon sir-asrori bilan qiziqqan, deyarli, barcha tabaqadagi o'quvchilar e'tiborini jalb eta olgan betakror asardir. Shabustariyning hayoti va adabiy merosini tadqiq etgan olim – Orifi Sayyor keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Sohibqiron Amir Temur Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy"si bilan bir qatorda "Gulshani roz"ni ham ishtiyoq bilan mutolaa qilgani, ayniqsa, bu asardan behad zavq olgani va uning sharofatidan Ozarbayjonga qo'shin tortganida, Mahmud Shabustariyning vatani bo'lgani uchun ham Shabustar kentini chetlab o'tganini aytadi.

Temuriyzodalardan Abul Qosim Bobur ham ushbu asarga oshufta bo'lganligini Alisher Navoiy "Tasavvuf risolalaridin" "Lama'ot" bila "Gulshani roz"ga ko'p mashuf erdi",- deya ta'kidlaydi.

"Gulshani roz"da ilgari surilgan irfoniy g'oyalar ostida bir qancha nodir kitoblar yaratilgan. Asarni turk tiliga o'giran olim Abdulboqiy Gulpinorlining aytishicha, Imadi Faqiyning "Misbah ul-hidoyyo", Ibrohim Tennuriyning "Gulzornoma"si shunday kitoblardandir. "Gulshani roz" nafaqat sharq olimlari, balki g'arb olimlari e'tiborini ham o'ziga qarata olgan asar bo'lib, u arab, turk, urdu tillariga tarjima qilinishi bilan bir qatorda ingliz, olmon va rus tillariga ham o'girilgan. Shabustariyning ushbu manzumasini hajman kichik bo'lsa ham, mohiyat e'tibori bilan teran asardir. U hijriy 717, milodiy 1319-yilda, Amir Xusayn Tabriziyning talabi bilan Amir Husayn Hiraviyning savollariga javob tarzida yaratilgan. O'shanda shoir chamasi 30 yoshlarda bo'lib, ilmu irfonni mukammal egallagan va yuksak ma'naviy maqomlarga erishgandi. Buni muallifning:

سوال ماه در ناکهان هجرت ز سال هفتصد از ده و هفت کز شته

Guzashta haft va dah az haftsad sol,

Zi hijrat nogahon dar moh savol.

Ya'ni, "hijriy 717-yilda, kutilmaganda, menga savol yo'lladilar",-so'zlaridan ham anglasa bo'ladi.

Husayn Hiraviy yo'llagan savollar ancha vaqtlardan buyon bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan orif, ma'ruf, Analhaq, vahdat, kasrat, sayru suluk, sharob, sham', ko'z, lab, zulf, xat, xol, kufr, but, butparast, zunnor, tarso, tarsobacha, xarobot kabi irfoniy tushuncha va istilohlar mazmun-mohiyatiga qaratilgan bo'lib, bular Shabustariyni orifning ma'naviy-ruhiy kamoli – holi va oriflik maqomi haqida chuqur mulohazalar yuritishga undagan edi. Muallif "Gulshani roz"da oriflik maqomi va holi haqida so'z yuritir ekan o'zidan oldin yashab o'tgan hamda o'z zamondoshlari bo'lgan mashhur mutassavif-allomalarning fikr-mulohazalarini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Bil'aks, ularga tayanib fikr yuritadi.

Chunonchi, Junayd (Bag'dodiy) deydi, oriflikning boshi barcha ilmlarni Allohdan deb bilishdir, kishi “o‘zi egallagan ilmlarni ham Haq kamolining ifodasi odam ilmini esa nisbiy, nuqsonli va Alloh ilmiga nisbatan to‘lishib boradigan” deya hisoblashdan boshlanadi. Bu haqda “Gulshani roz”da quyidagi satrlar bor:

تقلید محض باشد که آینه هر بید تا نیست کر آن در دگر باره
نکشود هیچ منتق ایستعمال ز نمود راه ایزد که را کس آن هر
(Digarbora dar o‘ gar nest ta‘yid,
Har oina, ki boshad mahzi taqlid...
..Har on kasro, ki Ezad roh nanmud,
Zi iste‘moli mantiq hech nakshud).

Mazmuni: Agar Allohdan bir madad bo‘lmasa, zohiriy tartib-qoidalarga zo‘r berib amal qilsang ham, ko‘nglingda hech bir mohiyat kasb etolmaysan. Ya‘ni, Yaratganning o‘zi qalbingga nazar solmas ekan, zohir ilmi bilan ma‘rifatga aslo erisholmaysan.

Shabustariy ilm va uning xususiyatlari haqida mulohazasini bayon qilarkan, ilmning bir butunlikdagi umumiy ko‘rinishi (qol ilmi + hol ilmi) – ma‘rifat (irfon ilmi)ni danakka qiyos etsa, alohida xususiy ko‘rinishi jihatdan qol ilmini – “danakning po‘sti”, hol ilmini – “danakning mag‘zi” deb ataydi. Shu bilan birga ularning umumiylik va xususiyligi, o‘xshash va zid tomonlari, afzallik darajalarini mumkin qadar mukammal tavsiflashga harakat qiladi. Chunonchi, shoir aytadi:

نشکست پوست کو مغز هر نیابد دست در افتاده سبز قشر جوش ز
حال با قال علوم با نسبت به اعمال احوال بازدان جا آن از
معنا نیست الا دارد صورت که دنیا میل دارد آنکه است علم نه
انداز دور خود از ساک، خواهی ملک از با علم هرگز جمع نکرد
(Zi qavzash qishri sabz aftoda dar dast,
Nayobad mag‘z har k-o‘, po‘st nashkast.
Az in qo bozdon, ahvoli a‘mol,
Ba nisbat bo ulumi qol bo hol.
Na ilm ast on ki dorad mayli dunyo,
Ki surat dorad, ammo nest ma‘no.
Nagardad qam‘ hargiz ilm bo oz,
Malak xohy, sag az xud dur andoz).

Mazmuni: Danakning po‘stini sindirib mag‘zni olmaguncha maqsad hosil bo‘lmaganidek, ilmlarni egallamaguncha irfon ilmi asrorini anglay olmaysan. Ya‘ni, oriflar maqomiga erishib, go‘zal Hurliqo (Alloh) jamolini qalb oinasida ko‘rmoq istasang, ma‘rifat nurlari ila ma‘naviy-ruhiy olamingni munavvar qil. “Nafs” deb atalmish itni ko‘ngil xonasidan hayda. Uning mayllari qutqusi va ta‘masidan butkul qutilgin.

Shabustariyning nazdida butun olam – Alloh nurining zuhurlanishi erur. Haqning ko‘rinmasligi shu nurda yashirin ekanligidadir. Ya‘ni Alloh o‘zini borliqqa tajassum etgan. Olamning sir-ru asrori, ilm-u hikmati, xislat va xususiyatlari, qonuniyatlari Uning tazzahuridir. Shoir aytadi:

هویدا؟ عالم از گردد او کجا پیدا اوست نور به عالم همه
پوست تا مغز از فرق هیچ نبودی اوست پرتو کاین کسی ندانستی
پینها پیداست اندروی حق دان حق نور فروغ جومله جهان
Hama olam ba nuri o‘sit paydo,

Gujo o' gardad az olam huvaydo.
Nadonsty kase k-in partavi o'st,
Nabudy hech farq az mag'z to po'st.
Qahon qumla furo'g'i nuri Haq don,
Haq andar vay paydosit pinhon.

Mazmuni: Kishi bilmaydiki, butun olam Alloh jamolidan taralgan nur majmuasidir. Ushbu nur Undan kelib, Unga qaytur. Ya'ni, faqat U bordir, borliq Uning soyasi bo'lib, U o'z soyasi ortida yashiringandir.

Oriflarning aytishicha, Tangri dunyoning hamma joyida mavjud. Shunday ekan inson Uni o'z borlig'idan tashqarida izlashiga hojat yo'q. Oriflik maqomiga ko'tarilmoqni niyat qilgan tolib dastlab o'ziga, so'ng o'z atrofidagi narsa va ashyolarga boqib, Xudoning sifotlarini tanish, anglash ma'rifatini to'la egallashi shartdir. Aksincha, ilmi irfondan bexabar kishilar bu yo'lda o'z boshlariga tashvish orttirishdan boshqasiga yaramaydilar. Ularning Asl manzilga erishish ilinjida chekkan riyozi, g'ayrati va barcha xatti-harakatlari besamar kechadi. Chunonchi, Shabustariy aytadi:

بیابان در جوید شمع نور به تابان خورشید او که نادان زهی
دارد پیش در سرکشتگی بسی دارد اندیش دور عقل کو کسی
(Zihy nodon, ki o' xurshidi tobon,
Ba nuri sham' jo'yad dar biyobon.
Kase, k-o' aqli dur andesh dorad,
Base, sargashtagy dar pesh dorad).

Mazmuni: ma'rifatdan bexabar odam qorong'ida sham tutib, dashtdan quyosh izlagan nodonga o'xshaydi. Kimki faqat idrok ilmi bilan Allohni izlashga jahd qilsa, u o'z boshiga bitmas balolar yog'dirishdan nariga o'tolmaydi.

Abu Nasr Sarrojga ko'ra: "Mo'min bilan orifning orasidagi farq shundaydir: mo'min olamga Alloh nuri bilan boqadi, orif esa Allohning o'zi ila nazar tashlaydi. Mo'minning qalbi bordir. Orifniki yo'q. Mo'minning ko'ngli zikri ilohiy ila orom oladi, orif esa Allohdan boshqa hech nimadan rohatlanmaydi". Shabustariy ham oriflarda kechadigan bu mo'tabar tuyg'uni shunday ta'rif etgan:

ست شهود در اورا متلق وجود ست وجود شناسای عارف دل
درباخت پاک هستی که هستی یا و شناخت هست حقیقی هست جز به
(Dili orif shunosoyi vuqud ast,
Vuqudi mutlaq o'ro dar Shuhud ast.
Ba quz hasty haqiqy ast nashnoxt,
Va yo haste, ki hasty pok darboxt).

Mazmuni: orifning qalbi Mutlaq – jamol ko'zgusi, sir-u asror mazhari. Orif olamga qalb ko'zi bilan nazar tashlar ekan, faqat mutlaq borliqni – Haqni ko'radi. Ya'ni, orifni moddiy borliq talablari va xususiyatlari unchalik qiziqitirmaydi. Chunki uning qalbi va ruhiyati Allohga doimiy qaratilgandir.

Shuning uchun ham Abu Turob Naxshabiy orifning fazilatlarini haqida fikr yuritib, "Hech bir narsadan kirlanmaydigan va hamma narsani o'zi ila poklaydigan kishidir orif", - degan edi. Demak, har qanday holat va sharoitda ham qahrni – mehrga, zulmni – adolatga, johillikni – ma'rifatga, nafsni – farosatga taslim etish, orifning xos xususiyatidir. Oriflarga xos ushbu ibratli fazilatlar haqida Shabustariy yozadi:

شجاعت عفت و حکمت وی از بس عدالت آمد نیک خلق اسول
دور شوده وی از خمود حمچن شره مستور کرده خود شهوت عفت به
شد نکو خلقتش آن از ظلم ندارد شد او زات شعار چون عدالت

(Usuli xulqi nek omad adolat,
Bas az vay hikmatu iffat, shuqoat.
Ba iffat shahvatu xud karda mastur,
Sharah hamchun xamud az vay shuda dur.
Adolat chun shiori zoti o' shud,
Nadorad zulm, az on xulqash nako' shud).

Mazmuni: barcha oliy fazilatlar – shijoat, iffat, adolat, go'zal xulq kabilar orifning zotiga ilohiy ko'rkdir. Shu sababdan ham u ich-ichdan nurlanib boradi. Noshoyista xislatlar uning yoniga yaqinlasha olmaydi. Birovga zulm qilmaslik, hammaga birday adolat ko'rsatib, olamga mehr-muhabbat nurlarini taratish uning azaliy shiori, qarori va baroridir.

Tasavvufda tariqat ahllari uchun turli maqom va vazifalar belgilangan bo'lib, eng so'nggi maqom oriflar maqomidir. Siyom (parhez) tutish, qiyom (qoyim) turish va doimiy muroqabaga kirishib, jahondagi mone'lik (to'siq, parda)lardan ko'ngilni pokizalashga erishib, o'zida va atrofidagi barcha narsa, hodisa-harakatlarda birlamchi asl mohiyatni ilg'ash oriflik maqomining talabi hamda orifning bardavom bajarib boradigan ibratli amali bo'lgan.

“Gulshani rozda” ushbu jahoniy mone'liklarning nomlari birma-bir keltirilar va ularni bartaraf etish choralari (yo'riqlari) xususida so'z yuritilar ekan, talab ahlini yo'l qiyinchiliklariga bardosh bera oladigan darajada tayyorgarlik ko'rishga hamda oriflik maqomi va holiga munosib bo'lishga chorlaydi:

است چهار حم وی از کردن تهارت است چهار عالم درین جون موانع
وسواس شر وز معسیت از دوم انجاس و احداث از پاکی نخستین
است بهیمه حمجون آدمیی وی با که است زمیمه اخلاق از پاکی سیم
سیر کردش می منتهی اینجا که غیر از است سیر پاکی چهارم
(Mavone' chun dar in olam chahor ast,
Tahorat kardan az vay ham chahor ast.
Naxustin poky az ahdosu anqos,
Duvum az ma'siyat v-az sharri vasvos.
Seyum poky az axloqi zamima ast,
Ki bovay odamiy ham chun bahima-ast.
Chahorum pokii sir ast az g'ayr,
Ki injo muntahy megardadash sayr).

Mazmuni: Shuni bilgilki, dunyoviy mone'liklar to'rttadir. Ularni oriflarga xos tarzda bartaraf qilish yo'l-yo'riqlari ham to'rttadir: birinchisi taningni va to'ningni hamisha toza tutmoq, ikkinchisi yuragingni pok tutmoq, uchinchisi buzuk xulq va axloqdan – hayvoniy xislatlardan o'zni himoya etmoq, to'rtinchisi tilni tiyib bilish – sir tutish demakdir.

Shabustariyning e'tirof etishicha, chin orifning maqsad va matlabi bitta – Allohga, Ma'shuqi azalning jamoli va visoliga ishtiyoqmandlik, odam va Alloh munosabati xususida mushohada yuritish demakdir. Ya'ni, foni va boqiy dunyo huzur halovati hamda oxirat zavqi va mukofoti istaklaridan kechib, davomli muroqaba ila poklangan ko'ngilni, Tangri dargohiga munosib darajada hozirlamoqdir. Chunonchi, Shoir aytadi:

پاک را جومله خود از انداز برون خاشاک و خارست همه تو وجود

جاروب خانه او کرد نفی لای به محبوب کشت نوافل از کو کسی

عین صورت عارق علم نیابد شین بر او باقی بود تا هستی ز

(Vuqudi tu hama xor astu xoshok,

Burun andoz az xud qumlaro pok.

Kase k-o' az navofil gashta mahbub,

Baloye nafy kard o' xona joro'b

Zi hasty to buvad boqy baro' shayn,

Nayobad ilmi orif surati ayn).

Mazmuni: Tanu joningni dunyoviy to'siqlar, bandlardan ozod qil. Ko'ngil xonasini xoru xaslar (dunyoviy va uqboviy xohish va qiziqishlar, moneliklar) dan jahd ila poklab, haqiqiy do'stga – Mutlaq jamol sohibiga hozirla. Shuni bilib qo'yki, agar qalb uyida bu xoru xaslardan bir zarracha qolsa, Alloh unga nazar solmaydi. Oriflik maqomiga erisholmaysan.

Shabustariyga ko'ra, orif hamisha vahdat siridan voqif bo'lish uchun haqiqat sari tinimsiz ilgari lab borayotgan tolibdir. U har on ma'nan va qalban uyg'oq. Shuning uchun ham uning munavvar nurga limmo-lim qalbi borliq Sohibining sirru asroridan boxabar:

است محیط دور آن و نقطه جون این که است بسط عرش مرکز دل مکر

بهرام و تیر وجود در نباشد خام ای حکمت دارد پشه وجود

(Magar dil markazi arshi basit ast,

Ki in nuqta va on davri muhit ast.

Vujudi pashsha dorad hikmat ay xom,

Naboshad dar vujud tayr va bahrom).

Mazmuni: orifning ko'ngli – Tangri taoloning taxti. Shu ma'noda u borliqning markaziy nuqtasi bo'lib, barcha davrlarda hodisotlar uning atrofida turli daraja va shakllarda qayta-qayta, takroriy holda voqealanaveradi. Biroq qanotdek ilohiy hikmat-u ma'rifat bo'lmaganida, pashsha parvoz etaolmaganidek, orif ko'nglidek mislsiz ma'rifat manbasi – sirru asror bahri bo'lmasa, shubhasiz, olamlar ham ko'k yuzini ko'rmagan bo'lar edi.

Orif o'z Ma'rufining jamolini qalbida toabad sir saqlashi, u bilan bardavom birlashishi uchun har dam ko'ngul xonasini tozalab supurib artishi, ruhiyati, shuurini o'zga narsalardan (to'siqlar; to'n, tan va ko'ngil kirligi, pastkashlik, axloqsizlik, qo'rslik, mansabdor, dunyodor bo'lishga, hirsga mayl va boshqalar) – kasratdan uzish, mosuvodan qutilish maqsadida davomli muroqabaga kirib, O'zda o'zlikdan zarra ham qoldirmaslik uchun kurashuvchi chinakam huriyatparvar komil insondir.

Demak, oriflik maqomiga yuksalib, Allohning zoti, sifoti, ismi va fe'llarini mushohada etmoq huzuriga hamma ham birday erishavermagan. Talabgorlar juda ko'p bo'lgan. Biroq ularning aksariyati turli qiyinchiliklar va mashaqqatlarga dosh berolmay, yo'lning yarmidan ortiga qaytgan, yo'ldan adashgan yoki yo'lning ma'lum bir vodiysida qolib ketganlar. Ushbu mushkul sinovlardan o'tib, saralangan kishilargina ko'zlangan asl manzilga – oriflik maqomiga yetib kelganlar. Zero, Mahmud Shabustariyning "Gulshani roz" asari mana shu sermashaqqat yo'ldan yurish odobi, talab va qoidalari, Asl manzilga erishganlar – oriflar huzuri, hol va maqomi xususida bahs yuritar ekan, talab ahlini axloqan poklanib ma'nan yuksalishga, ya'ni Asl manzil va maqsad ishtiyoqida yashashga ilhomlantirib kelayotgan o'ziga xos betakror asardir.

Yana shuni aytib o'tish joizki, mashhur rus sharqshunos olimi Yevgeniy Eduard Bertels ham tasavvuf istilohlari tadqiqiga qaratilgan "Zulf va yuz", "Xat va xol" kabi ilmiy maqolalarini yozishda asosan Mahmud Shabustariyning mazkur manzumasiga, aniqrog'i, manzumdagi "yuz",

“zulf”, “xat”, “xol” singari istilohlar sharhlangan satrlarga tayanib ish tutgan. Ushbu hol ham “Gulshani Roz”ning istilohlar olamidani bahs etguvchi nodir asarlardan biri ekanligiga ishorat etadi:

Mapurs az man hadisi zulfi purchin,

Majnunbonid zanjiri majonin.

Nayobad zulfi o' yak lahza orom,

Gohi bom ovarad, gohi kunad shom.

Mazmuni: Mendan u jingalaklarga to'la soch haqida rivoyat so'rama, telbalarning zanjirini tortib silkitma. Uning zulfi bir lahza tinim bilmaydi, goh tong olib keladi, goh shom qiladi.

Xullas, forsiy zabon allomalar nazdida ham orif – ogoh, oshno, xabardor, uyg'oq, anglagan va tanigan, to'g'ri yo'lga tushgan, holdon, irfon sohibi, qalb ko'zi ochiq valiy. Shuning uchun ham orifning holatlarida shoshqinlik, besaranjomlik, shikoyat va tangdillik mutlaqo ko'zga tashlanmaydi.

Sharq mumtoz adabiyotida o'lmas asarlar yaratgan ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiy ham ayni zamonda ulkan mutassavif edi. Uning borliq va olam haqidagi tushunchalari, qarashlari boy tasavvufiy mazmun bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham shoir ijodiyotida irfoniylar g'oyalar ustuvorligi hamda tasavvufiy istilohlarning izchil qo'llanishi asarlariga ilohiy fayz va kuch bag'ishlagandir. Ayniqsa, “Lison ut-tayr”da bu fikr o'zining yorqin isbotini topgan. Unda shoir din va axloq, ishq va komillik, fano va baqo masalalaridan bahs yuritgan. Mutassaviflarga ko'ra, borliqdagi barcha narsalar; quyosh, oy, yer, osmon, suv, tuproq, olov, tog', tosh, o'simlik va hayvonot olami, darrandayu parandalar barcha-barchasining har birida Xudoning fe'l va sifatlaridan biri mavjud. Mutlaq haqiqat – Alloh shu tabiat bag'rida, abadiy go'zallik sifatida o'zini namoyon etaveradi. Bu kabi ilg'or qarashlar o'z-o'zidan ma'no ahlini diniy haqiqatlarga keng qarashga ilhomlantiradi.

Ana shunda diniy mahdudlik va ayirmaliklar ham barham topadi. Navoiyning ta'kidlashicha, asl mohiyat tomon yurgan kishining e'tiqodida sobitlik juda muhimdir:

نی الله بیت بیرله کوی دیر نی آگاه و کمره کور تینک آندا

آتشزده یا معمور بولسalar بئکده بیرله کعبه کر بیردورور

دشوردور بس کا سالک ایش موندان مقدار دور تینک جو غه دین ایله کفر

(Onda teng ko'r gumrahu ogohni,

Dayr kuyi birla Baytullohni.

Birdurur gar Ka'ba birla butkada,

Bo'lsalar ma'mur yo otashzada.

Kufr ila dinga chu teng miqdordur,

Munda ish solikka bas dushvordur).

So'fiylarning dunyoqarashlarida yuz bergan bunday ma'naviy ilgarilash holatlari o'zga dinlarga mansub bo'lgan tushunchalarni anglatuvchi kufr, tarso, zunnor, but kabi so'zlarning tasavvufiy istilohlar qatoridan o'rin olishiga bosh sabab bo'lgan, desak xato bo'lmas. Shuni unutmaslik kerakki, so'fiylarning nuqtayi nazari va fikr-mulohazalarida ham farq, nomuvofiqlik, hatto ixtiloflar ham bo'lgan. Oshiq oshiqning holini teran idrok aylashi qiyin bo'lganidek, orif ham orifni oson anglayvermagan. Masalan, bir orif “Hech bir narsani ko'rmaymanki, uning ortida Allohni ko'rmasam”, desa, boshqa biri “Hech bir narsani ko'rmaymanki, unda Allohni ko'rmagan bo'lsam”, degan. Yana boshqasi, “Hech bir narsani ko'rmaganmanki, undan oldin Allohni ko'rmagan bo'lsam”, desa, navbatdagisi “Faqat Allohni ko'raman”, degan. Shuningdek, “Yolg'iz

Alloh ko‘rinadi, U esa ko‘rinmaydigan Alloh erur”, deguvchilar ham bo‘lgan. Bu so‘zlar “Lison ut-tayr”dagi “Fil hikoyati”da ifodalangan ko‘rlarning gaplarini eslatmaydimi? Albatta, eslatadi. Chunki ko‘ngil holi va mushohadasi ma‘rifat sohiblarining hammasida ham bir xil bo‘lmaydi. Shu ma‘noda dostonidagi Shayx San‘on qissasi chuqur tadqiq va talqinga loyiqdir. Shayx sevgan malak - tarso qiz. U nima qilib bo‘lsa hamki kekxa oshig‘ini dinu imon yo‘lidan ozdirmoqchi:

ءيان بولدى بىرى شرايطدن كيم بيان اتى نوع بو سوز ترسا شوخ
غه اوصافى كفر شيوه ماهر بارجه اشرافىغه ايلي كفر مهوش ديدى
ايتىلار تعليم نى ملت اول انكا ايتىلار تقديم ايمانغه كفرن

(Sho‘xi Tarso so‘z bu navi etti bayon,

Kim sharoitdin biri bo‘ldi ayon.

Dedi mahvash kufr eli ashrofig‘a,

Barcha mohir sheva kufr afsofig‘a.

Kufrni iymong‘a taqdim ettilar,

Anga ul millatni ta‘lim ettilar).

Qalbida tavhid tuyg‘ulari tug‘yon urgan San‘on uchun barcha dinlarning tub mohiyati shiddat-la yorishayotgandi. Shu sabab ham u o‘zga din peshvolarining mohirona bajarayotgan musulmonchilikka zid urinishlariga qarshilik ko‘rsatishga ham hafsala qilmasdi:

ايتاكيل ميندين اولسه مطلوب نى هر ديكيل قالدى نى شوخ اى شيخ ديدى

كبيدورديلار اياق باشدين شيخقه ييتكوردلار خلعتلارين ايلي كفر

اطوارنى سالك ايلاب كافر زئارنى تانكيب محكم كا بيلي

هم آليده بت سجده قىلدى مست وژم خوار غه بتخانه لار چيكتى

پرست بت اوزنى مستانه قىليب هم مست بيرله دمام جام بولوب هم

(Dedi Shayx: “ Ey sho‘x ne qoldi degil,

Har ne matlub o‘lsa mendin istagil”.

Kufr eli xil‘atlarin yetkurdilar,

Shayxqa boshtin oyoq kiydurdilar.

Beliga mahkam tangib zunnorini,

Kofir aylab soliki atvorini.

Chektilar butxonag‘a xoru dajam,

Mast qildi sajda but ollida ham.

Ham bo‘lub jomi damo-dam birla mast,

Ham qilib mastona o‘zni butparast).

E‘tibor bering: yuzlab muridlari ortidan ergashib yurgan va qanchadan-qancha o‘lkalarda dong taratgan bir murshid hech ikkilanmay “kufr eli”ning kiyimini kiyib, beliga zunnor bog‘laydi. Bu ham kamlik qilgandek, butxonaga olib borilganda u mast bo‘lib butga topinadi! Buning nimasi ibrat? Bu savolga javob berishdan oldin aynan kufr, tarso, zunnor, but, butxona, butparast kabi kalimalarning istilohiy ma‘no-mohiyati sharhlangan “Gulshani roz” dagi mana bu misralar bilan tanishish maqsadga muvofiqdir:

اىست پرستى بت در دين كه بدانستى چيست بت كه بيدانستى كر مسلمان

پنهان است ايمانى كفر زير به پنهان است جاني بتى هر درون

پرستى بت عين توحيد شود هستى به قايم بود دين كفو چو

بديدار شد حقيقى كفر كرا بيزار كشته مجازى عسلام ز

خدمت عقدى بستن زئار بود وحدت و است عشق مظهر اينجا بت

(Musulmon gar bidonistiki, but chist,

Bidonistiki, din dar butparastist?
Daron har bute jone ast pinhon,
Bazeri kufr iymone ast pinhon.
Chu kufru din but qoim bahasti,
Shavad tavhidi ayn butparasti.
Zi islom majoziy gashta bezor,
Kiro kufr haqiqiy shud badiydor.
But injo mazhari ishq astu vahdat,
Buvvad zunnor bastani aqdi xidmat).

Mazmuni: Ey musulmon, koshki sen butning nimaligini-yu, budparastlik maslagining qandoqligini anglasang edi! Shuni bilginki, har bir butda yashirin jon bordir. Kufr esa qalbdagi sir tutilgan iymon timsoli erur. Va yana anglaginki, agarda kufr va din borliqdan butkul yo'qolib qolsa, ulardagi asl mohiyatlar birlashib butparast qalbidagi namoyon bo'lishi ham mumkin. Mudom esda tutginki, ba'zan din zohiran kufrga aylanib, kufr esa botinida yashirin turgan iymoniy asrorni oshkor etadi. Shuni yaxshilab uqib olginki, aslida but – ilohiy ishqning mazhari, qalbning vahdatga intilishi bo'lsa, zunnor bog'lamoq – bu yo'lda solikning sadoqat va yakdillik bilan murshid yoki piri komilga itoat etishidir.

Ushbu kitobda yana shunday fikrlar bor:

یدم د تقلید رپقه از خلاس دیدم تجرید غرض ترسائی ز
مظاهر دارد بتان روی از که باهر است نوری ترسابعه و بت
(Zi tarsoyi g'arazi tajrid didam,
Xalosi az ribqa'i taqlid didam.
Butu tarsobacha nuri ast bohir,
Ki az ro'yi buton dorad mazohir).

Mazmuni: tarsolikda tajrid xususiyatlarini ko'rdim: mosivodan ayrilmoqni va yana soxtaliklardan, boshqalarga zohiran taqlid qilish kabi ma'nisiz amallardan tamoman xalos bo'lmoqni ham. Tarsobacha – butlar yuzidan yog'ilgan ilohiy nurlardan xabar topib, bu ilohiy tajalli natijalarini (tajridni) o'z qalbidagi kashf etgan zotdir.

Xullas, mutassaviflar nazdida va istilohida kufr – haqiqiy iymonni tamsil etsa, kofir – faqirlik maqomiga erishgan orifga ishoratdir. Tasavvuf tilida tarso – kasratni tark aylab, dunyo tashvishlaridan g'olib kelayozgan solik bo'lsa, tarsobacha – tajalliyot hamda tajrid sirlaridan boxabar murshid yoxud pir timsolidir. So'fiyona maslakda but – matlab va maqsad, butparast – shu matlab va maqsadga intiluvchi kishi bo'lsa, zunnor bog'lamoq – ilohiy maqsad yo'lida belni mahkam bog'lashdir.

Endi qissadan keltirilgan misralarning botiniy ma'nolari haqidagi fikrlarimizni bayon etsak: Istig'no va tavhid vodiylariga xos hollarni yashagan Shayx San'on faqr, sabr va tavakkul kabi maqomlarga yuksaldi hamda o'zida tom ma'noda faqrlikni kashf kiladi. Vahdat mayi uni yanada sarxush, yana ham mast etadi. Shunda u ma'shuqa quygan ilk shartlarni o'z-o'zidan bajarishga kirishadi:

ایلايين چلپا و زَنار عزم ایلایین ماوا ایجره دیری کفر
پرست بت بولایین مصحف کویدوروب مست اوزنی ایلاب آلیدا دیر پیر
خالاص الای دین ننکی ایمان جائی خاص اوزنی ایلاب ایجره دیری عشقی
ایلايين بوس زمین سجودیندا بت ایلایین ناقوس اسماع ارا دیر
کفارنی شادمان ایلای اوزدین زَنارنی باغلابان محکم بیلکا

(Kufr dayri ichra ma'vo aylayin,
Azmi zunnorru chalipo aylayin.
Piru dayr ollida aylab o'zni mast,
Kuydurub Mus'haf bo'loyin butparast.
Ishqi dayri ichra aylab o'zni xos,
Jonni iymon nangidan aylay xolos.
Dayr aro asmo'i noqus aylayin,
But sujudinda zaminbo's aylayin.
Belga mahkam bog'labon zunnorini,
O'zdin aylay shodimon kufforini).

Shabustariyning yuqorida keltirilgan misralari va ularning izohlaridan keyin Shayx San'onning ushbu gaplari g'ayritabiiy ko'rinmaganidek, ularni qoralashga ham ehtiyoj sezilmaydi. Chunki Shayx ranj-u riyozat torta-torta fano vodiysiga yetib kelgan va nafs mosivodan tamomila poklangan edi. Fanolik zavq-shavqi uni domiga tortar, u esa dengizga qo'shilib – singib ketgan tomchiday ishq daryosiga cho'mishdan shodlanardi.

Mutassaviflar istilohida ishq Haqning zuhuriga asos bo'ladigan dastlabki sifat. Oriflar butunlay ishqqa o'zini bag'ishlab ilohiy jalol va jamolga oshufta bo'lganni "Oshiq" deb ataganlar. Ularning nazdida zohidlar – zohiran o'zini dunyodan yuz o'g'irganini namoyon etuvchilar bo'lsa, obidlar – ko'p ibodat qiladigan, doimiy mashg'uloti ibodat va toat bo'lgan, qilgan ibodatlari tufayli najot topishiga ishonadiganlardir. Biroq, birgina zohidlik va obidlik rasm-rusmlarini ado etish – nafs balolaridan tamoman qutilish yoxud, nafs pokka (nafs mulhama, nafs komilaga) erishib, Haq diydoriga loyiq bo'lish degani emas. Chunki o'tmishda qilgan toat-ibodatlari hurmati va chekkan riyozatlari shuhratiga bino qo'yib, movumanlik, shuhratparastlik va xudparastlik kabi nafs ammoraning nayranglariga aldanib, imonsiz ketganlarning soni behad ko'p bo'lgan. Xullas, oriflarga ko'ra qallda Haq ishq tug'yon urmasa, qalb chin oshiq bo'lmasa, kishi bir dam ham "nafs bad"dan xalos bo'la olmaydi.

Darvoqe', "Lison ut-tayr" dostonidagi "Shayx San'on" hikoyatini sinchiklab o'qiy boshlar ekanmiz asar boshida Shayx San'onni ham uzoq muddat toat-ibodatda bo'lgan, bir necha o'n yillar mobaynida islom va imon uchun riyozat chekib, yuzlab muridlarni kamolga yetkazib, musulmon olamida shuhrat qozongan zohid, obid-taqvodor pir – "Ka'baning shayxul-mashoyixi" sifatida tasavvur etamiz:

ايدى آگاه اسراريدىن غيب كونكلى ايدى درگاه واصل صنعان شيخ
اول ايردى المشايخ شيخ كعبه اول ايردى راسخ ارشادىغه خلق
Shayx San'on vosili dargoh edi,
Ko'ngli g'ayb asroridan ogoh edi.
Xalq irshodig'a rosix erdi ul,
Ka'bada shayxul-mashoyix erdi ul.

Xo'sh, shunday kamolotga erishgan, olim-u ulamo, shoh-u gado, katta-yu kichik barcha-barchaning hurmat va e'tiborini qozongan kishida yana qanday ehtiyoj yoxud kamchilik bo'lishi mumkin?,-degan savol tug'ilishi tabiiy. Xuddi mana shu savolga to'g'ri javob topish – Shayx San'on boshiga tushgan kulfat va musibatlar sababining tub mohiyatini aniqlashga imkon yaratadi. Shu bilan birga dostonidagi yana boshqa avliyolar, oriflar va buyuk shaxslar haqida bitilgan hikoyatlarni ham nazardan chetlashtirmaslik kerak bo'ladi. Asarning 137-bobidan joy olgan Shayx Abu Bakri Nishopuriy haqida bitilgan hikoyatni olaylik. Unda o'qiymiz:

يول ايردى تاپيب سارى معنى ملك اول كه نشاپورى بكر ابو شيخ
معموردىن خطه اول اوچون سير نيشاپوردىن ملك كون بدر چيقتى
فزون دين نهايت مخلص و خادم فزون دين يت غا ايىنى ليغ شيخ
كروه ينكليغ هر آليده دا كينى شكوه بو قىلدى نظاره جون شيخ
خيال اول قىلدى مغلوب انى كيم محال توستى كا كونكلى خيالى بير
ناكهان ييل بيبىك بير آندىن جيقتى فغان ايلاب ايشك بير محلا بو
غش قىلدى بيقىليب ايلاب رقص وجدو خوش اولدى وقت رمزدىن بو شيخقه

Shayx Abu Bakri Nishopuriyki, ul-
Mulki Ma'ni sori topib erdi yo'l.
Chiqti bir kun mulki Nishopurdin,
Sayr uchun ul xittai ma'murdin.
Shayxlig' oyini g'oyatdin fuzun,
Xodimi muxlis nihoyatdin fuzun.
...Shayx chun nazzora qildi bu shukuh,
Keynida-ollida har yanglig' guruh.
Bir xayole ko'ngliga tushti mahol,
Kim oni mag'lub qildi ul xayol.
Bu mahalda bir eshak aylab fig'on,
Chiqti ondin bir biyik yel nogahon.
Shayxqa bu ramzdin vaqt o'ldi xush,
Vajdu raqs aylab yiqilib qildi g'ash.

Xullas, shohidi bo'lib turganimizdek, riyoatlar chekib, ma'no mulkini qo'lga kiritmoq, barchaning e'tibori va hurmatini qozonmoq bilan ham ish bitmaydi. Bunga erishgan kishi doimiy muroqabadan to'xtasa, u shu qozongan shuhrati soyasiga suyanib-sig'inib yashashga mahkum. Qisqasi nafs ammora – movumanlik va shuhratparastlik kabi illatlar bilan bundaylar qalbini ishq'ol etishga mudom o'ch bo'ladi. Oriqlarga ko'ra bu kabi nafsoniy xurujlarga ters javob qaytarmay, ko'nikib ketaveradigan kimsalar esa, (kim bo'lishidan va qanchalik mashhur bo'lishidan qat'iy nazar) nasli-nasabi va toat-ibodatlarini ro'kach qilib, Hazrati Odamni nazarga ilmay, Haq amriga bo'yinsunmagan Azozildan, ya'ni shaytondan hech farqi yo'q. Shayx Abu Bakri Nishopuriy ham tezda o'ziga qaytmaganida, yoki ilohiy ishoratni ilg'amay raqs-u samo bilan muroqabaga (qalbini muhofaza etishga) kirishmaganida, nafs uni egarlab, o'z markabiga (eshakiga) aylantirib, yelkasiga minib olishi tayin edi. Mazkur fikrlarimizni hamsafarlari savoliga javob tariqida aytgan Shayxning ushbu so'zlari ham tasdiqlaydi:

شوم نفس ايشدين بو دورلار تابعم هجوم ايلاب خلق كه سالدیم نظر چون
دين اهلى امداد كا سالك و طالب دين اهلى ارشاد كه سالدی كونكلوما
سعید بو نی و نوری و عبید نی بایزید نی و شبل و جنید نی
سباه و خیل بو دا ایینى فقر جاه بو ایرکین ایدی تاپیب بیر قایسی
جواب بیردی ایشك اول محلا بو تاب بویله سالدی كونكلوما چون نفس
ایشك اول اولدی وجدین بو باعث کیراک کیم آنداق تاپتیم جوابیم چون
خیال اول چیقار غای ییلدیک باشیدین حال و وجد ایلاب كه اولغای اول جای
رس دست تاپماس دولته بيبىك بو بولھوس دون مغرور هر یوقسه
(Chun nazar soldimki, xalq aylab hujum,
Tobe'yimdurlar, bu ishdin nafs shum.
Ko'nglima soldiki irshod ahlidin,

Tolibi solikka imdod ahlidin.

Ne Junaydu Shibliyyu ne Boyazid,

Ne Ubaydu Nuriyyu ne Bu Said.

Qaysi bir topib edi erkin bu joh,

Faqr oyinida bu xaylu sipoh!

Nafs chun ko'ngluma soldi bo'yla tob,

Bu mahalda ul eshak berdi javob.

Chun javobim topdim andoqkim kerak,

Boisi bul vajdim o'ldi ul eshak.

Joy ul bo'lg'ayki, aylab vajdu hol,

Boshidin yeldek chiqorg'ay ul xayol.

..Yo'qsa har mag'rur, duni bulhavas,

Bu biyik davlatqa topmas dastras").

Shayx San'on taqdirida ham xuddi mana shu holat-sinov o'zgacha ko'rinishlarda yuz bera boshladi:

اوزديلار قرارين صبرو رشته كوزديلار كور انكا توش بير تون نيجه

ايدى تكرار اوق توشكا اول كوز يومسه ايدى استغفار حاليله اويغانيب

روم ايردى بوم اول معلوم ايلاسه بوم بيكانه بر ايردى مطافى كيم

(Necha tun bir tush anga ko'rguzdilar,

Rishtai sabru qarorin uzdilar.

Uyg'onib holiga istig'for edi,

Yumsa ko'z ul tushga-o'q takror edi.

Kim matofi erdi bir begona bum,

Aylasa ma'lum, ul bum erdi Rum).

Darhaqiqat, San'on boshiga tushgan balo, uning bag'rini o'rtab borayotgan dard va qalbini hamda vujudini chulg'ab olgan olov – shunchaki tezda daf etib bo'ladigan balo, bir davo bilan tuzaladigan dard yoxud, jahd bilan o'chirsa bo'ladigan olov emasdi. Axir bular o'z oti bilan – “ishq balosi”, “ishq dardi”, “ishq o'ti-olovi”dir. Shu dard bilan mudom hamnafas bo'lgan qalb sohiblari esa Haq vasliga loyiq oshiq oriflardir. Dardidan yiroqlik – ishqida notavonlik hamda maqsadsiz harakat – aldovdir. Bu aldov qanchalik jaranglamasin, saratonda jilo bergan sarobdek bemanzildir. “Alam”, “g'am”, “o't”, “olov”, “balo”, “dard”, “malomat” bu kabi kalimalarni ma'no ahli ba'zan “ishq” so'zi beradigan mazmunga qiyoslasalar, ba'zida esa oshiqlar hayotidagi ziddiyatli o'zgarishlar, tabiatida yuz bergan ters alomatlar sababchisi – asliyatga qarab intilishlarning boshlanishi, Haq yo'lida qo'yilgan ilk qadamlar deb bilganlar. Demak, ayni paytda San'on ruhiyatida ham asliyat tomon ilk amaliy harakat, ildamlash jarayonlari – ilohiy mo'jiza kashf bo'layotir. Bu jarayonning talabi har qanday boshqa maqsadlar istagidan qadrli, hukmi esa qat'iydir. Shu sababli talab ahli qanchalik qiyin va mashaqqatli bo'lmasin barcha musibatlariga dosh berib, bu amrni vojib etishga jahd etadilar:

احتر از بلادين بو بولماس ديدى راز كنچ مكرر بولدى توش بو جون

سرنوشت بولمنش اول چه اولماس كورماي كنشت يا حرمدر و ما كا كيمسه

نصيبت يا كيلسه هرني باشيميز غه نصيب و ما اول بيز كا بولسه چونكه

(Chun bu tush bo'ldi mukarrar ganji roz-

Dedi: “Bo'lmas bu balodin ehtiroz.

Kimsaga ma'vo haramdur yo kunisht,

Ko'rmay o'lmas ulcha bo'lsa sarnavisht.

Chunki bo'lsa bizga ul ma'vo nasib,

Boshimizga harna kelsa, yo nasib").

“Ganji roz” (sir, sirlar xazinasi) – Shayx San'on nutqidagi bu kalimada mutassaviflar – oriflar, darveshlar hamda oshiqlar qalbida kashf etiladigan va o'zgalardan maxfiy saqlanishi shart bo'lgan, kamolot sari boshlaydigan alomatlarni tushunganlar. Shuning uchun ham ruhiyat va qalb bilan bog'liq bu kabi ilohiy ishoratlarni boshqalardan yashirish, “Sir” tutishni – oshiq ahli Haq amriga bo'ysunmoq, yoki ishqida sodiq bo'lmoq deb bilganlar:

ياووشوب قیلور غه ضایع آنی کیم توشوب سودالار کا کونکلی شیخنینک

دین احوال غریب اول اولمای واقف دین حال اول سوال ایلاب خاصلار

(Shayxning ko'nglig'a savdolar tushub,

Kim ani zoye' qilurg'a yovushub.

..Xoslar aylab savol ul holdin,

Voqif o'lmay ul g'arib ahvoldin).

Oshiq San'on ham qalbida, vujudi-jism-u jonida, ruhiyatida yuz ochayotgan hollarni, o'zgalarni lol etayotgan hayrotomuz savdolarini Haq ishqidan ishorat bilib, imkoni boricha boshqalardan yashirishga – sir tutishga harakat qilada. Shu sababdan u muridlarining safar davomidagi barcha savollarini javobsiz qoldirishga majbur. Ammo, manzilga yaqinlashgan sari bu ishoratlar – qalbg'a ilashgan dardga, ruh etagiga yopishgan baloga, jismu jonga tutashgan olovga o'xshab borsa, o'z alomatlarini zohirida namoyon eta boshlasa, bu sirni qachongacha hamsafarlardan yashirin tutish mumkin?

رستخیز یوز ولی دا کونکلی شیخ تیز کثور غه اول قویدیلار قدم تا

دیر تورفه بیر ناکهان اولدی مری سیر ایلاردا نی بقعه بیر نفس هر

انکا عالم بیر اوزکا ایلب جلوه انکا هر دم بولوب مستولی ضعف

(To qadam qo'ydilar ul kishvarg'a tez,

Shayx ko'nglida vale yuz rustaxez.

Har nafas bir buq'ani aylarda sayr,

Ma'ri o'ldi nogahon bir turfa dayr.

Za'fi mustavli bo'lub har dam anga,

Jilva aylab o'zga bir olam anga).

Shayx San'onni shu butkadada g'aybat, vajd va sakr hollari mag'lub etdi. Shu sababdan ham u o'zidan kechib, moddiy olamdan yiroqlashgan. Uning qalbi tamoman o'zini unutib, menligini to'la tark etishga intilib, butkul poklanib borgan. Endi u basiyrat ko'zlarini ochib, borliqqa toza nurli nigoh bilan nazar tashlashga tayyor. Balki u tajalli olamiga kirib, ma'shuqai azalni izlayotgandir.

اختیار بی کوزی توشتی طرف بیر وار آشفته هر طرف ایردی ناظر

افق قوس بولوب اول قه قویاش بیر تتق بیر آسیلغان آندین منظرری

ترف هر توشتی انواری قویاش اول برطرف بولدی چو برقع اول ییلدین

سی پروانه دوریدا شمعی حسنی سی دیوانه قویاش یوز کیم قویاش نی

(Nozir erdi har taraf oshuftavor,

Bir taraf tushti ko'zi beixtiyor.

Manzare, ondin osilg'on bir tutuq,

Bir quyoshqa ul bo'lub qavsi ufuq.

Yeldin ul burqa' chu bo'ldi bartaraf,

Ul quyosh anvari tushti har taraf.

Ne quyoshkim, yuz quyosh devonasi,

Husni sham'i davrida parvonasi).

Alohida bir ishq dostoni sifatida "Lison ut-tayr" asaridan o'rin olgan "Shayx San'on" ishq, albatta, mazkur doston maqsadini belgilashda asos bo'ladi. Navoiy bu ishq yo'lini orifona mushohada, oshiqona zavq-shavq bilan yozganligiga shubha yo'q. Aslida bu ishq dostoni oshiqlikdan oriflikka, undan faqr-u fanoga ko'tarilish bosqichini yorqin ifodalaydi. Bu bir ulug' riyozat, ko'ngil safari ekanini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, Mahmud Shabustariy ham tasavvufiy istiloh va ramziy-ishoraviy timsollar bahsidan fikr yuritilgan "Gulshani roz" asarini yozayotganida ayni shu kabi yuksak ilohiy tuyg'ular og'ushida bo'lgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, har ikki asar ham g'oya va ham mazmun-mohiyat jihatidan vobastadir.

FOYDALANILGAN Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT, 17-jild. – Toshkent: Fan, 2001.
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT 13-tom. – Toshkent: Fan, 1997.
3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Ilmiy-tanqidiy matn. – Toshkent: Fan, 1965.
4. Bertels Ye.E.. Zulf va yuz. Tarjimonlar: U. Otajonov, A. Habibullayev // Jahon adabiyoti. Toshkent, 2005.
5. Bekova N. Alisher Navoiy adabiy tadqiqida faxriy hirotiy "radoyif ul-ash'or" asarining o'rni //Alisher Navoi'i and 21 st century. – 2024. – T. 1. – №. 1.
6. Bekova N., Sayliyeva M. The interpretation of praise in the east literature //Nauchnaya diskussiya: voprosy filologii, iskusstvovedeniya i kulturologii. – 2015. – №. 12.
7. Bekova N. THE ANALYSIS OF MUKHTARA GAZALS OF NAVOI //SENTR NAUCHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2022. – T. 14. – №. 14.
8. Jurayevna B. N. Potential of language and artistic art //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2019.
9. Jurayevna B. N., Nuriddinovna X. N. Alisher Navoi's Interpretation Of Asmai Husna In Bilingual Poetry //Journal of Positive School Psychology. – 2022.
10. Juraevna B. N., Khudoyorova N. Mukhtara-an example of discovery and invention (on the example of Foni's poems) //European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2021. – T. 8. – №. 1.
11. Jurayevna B. N. A WORTHY RESPONSE TO HAFIZ'S GHAZAL //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY.
12. Jorayevna B. N., Nigora K. Autonomous Ghazals Of Alisher Navoi // Journal NX. – T. 7. – №. 02.
13. Haqqul I. Irfon va Idrok. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
14. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr-O'zbekiston, 2009.
15. Latipov H. Mahmud Shabustariy va uning "Gulshani roz" asari haqida. //O'zbek tili va adabiyoti. 2011. №4.
16. Mahmud Shabustariy. Gulshani roz. – Tehron: 1952.
17. Sajjodiyning S. J. "Istilohote urafo". Tehron. Hijr. 1339.
18. Şebusteri. Gulsen-i raz. – Istanbul: Sark-Islam Klasiklari, 1989.

MUNDARIJA – СОДЕРЖАНИЕ – CONTENTS

MUMTOZ ADABIYOT TALQINLARI

Bo'riyev Jaloliddin Aliqulovich. Millat, qadriyat va davlat an'analari ming yillik jahon adabiyoti durdonasida.....	3
Murtazoyev Bobonazar Xurramovich. Munjik Termiziy: hayot va ijod yo'liga chizgilar.....	7
Jo'rayev Jamoliddin Aminjonovich. "Gulshan ul-asror" hikoyatlarida Mahmud G'aznaviy va Amir Temur obrazlari talqini.....	15
Qorayev Sherxon Po'latxonovich. Ashtarxoniylar sultoni subhonqulixon ilmiy-ijodiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.....	21
Eshonkulova Surayyo Isomiddinovna. Obrazlarda hayotiy talqin va badiiylik.....	28
Shodmonov Nafas, Qorayev Sherxon. Xorazmlik hukmdor shoirlar sulolasi.....	33
Nuriddinov Shahobiddin. Komil Xorazmiy devonining janriy tarkibi to'g'risida.....	47

NAVOIY IJODIYOTI

Rajabova Marifat Bakoevna. Alisher Navoiy ijodida yig'i-yo'qlov stilizatsiyasi.....	53
Bekova Nazora, Hayot Latipov, Zarina Sayliyeva. "Gulshani roz" hamda "Lison ut-tayr" asarlarida so'fiylik va irfon talqini.....	56
Hamroyeva Orzigul Jalolovna. Shoir badiiy maqsadining qofiyada aks etishi.....	70

ZAMONAVIY ADABIYOTGA OID TADQIQOTLAR

Axmedova Shoir Nematovna. Sharof Rashidov – tanqidchi sifatida.....	76
Murodov G'ayrat Nekovich, Saidova Rayhonoy Abdug'aniyevna. Romanda akativ diskursning o'rni.....	81
Soatova Nodira Isomitdinovna. Badiiyatda hayotiylik, ijodiylik va talqin masalasi.....	86
Turopova Parizod Shavkat qizi. Milliy qadriyatlar tasvirida adib uslubining o'ziga xosligi.....	96
Davronova Shohsanam G'aybulloyevna. Isajon Sultonning "Qo'riqchi" hikoyasida tabiat tasviri.....	102
Xolmuratova Moxira Egamberganovna. Isajon Sultonning tarixiy romanlarida poetik struktura va badiiy to'qima uyg'unligi.....	106
Pardayeva Zulfiya. Ulug'bek Hamdamning "Yo'l" romani: talqin mahorati va tahlil san'ati. Roman poetikasiga kirish.....	110
Elmonova Malikabonu. Zulfiya Qurolboy qizi hukoyasida yolg'izlik motivi.....	117

FOLKLORSHUNOSLIK

Nasirov Azimiddin Normamatovich. Badiiy asarda tush ifodasi: xarakter va ruhiyat birligi.....	120
Ro'zmetova Sohiba. Xalq og'zaki ijodida ajdodlar kulti bilan aloqador tug'ilish.....	125